

MAHATMA GANDI-BUYUK DAVLAT ARBOBI

FarDU akademik litseyi tarix fani o'qituvchisi

D.Paxriddinova

Annotatsiya: *Mazkur maqolada buyuk davlat arbobi Mahatma Gandi shaxsiyati uchun xos bo'lgan jihatlar, jahon tarixchilarining u haqida bildirilgan fikrlari bayon qilingan.*

Abstract: *This article describes the characteristics of Mahatma Gandhi's personality, the opinions of world historians about him.*

Kalit so'zlar: *Albert Eynshteyn, mustamlakachilik zulmi, Mo'handas Karamchand Gandi, Satyagrah.*

Keywords: *Albert Einstein, colonial oppression, Mohandas Karamchand Gandhi, Satyagrah.*

Sotsiologlarning hisob – kitoblariga qaraganda, XX asrning birinchi shaxsi Albert Eynshteyn bo'lsa, ikkinchi shaxsi Mahatma Gandi. Bu bejiz emas, albatta. Mahatma Gandi o'zining kechinmalarga boy hayoti bilan Hindiston xalqi uchungina emas, butun dunyo xalqlari uchun namuna bolib qold. Hind xalqining asriy mustamlakachilik zulmidan abadiy xalos bo'lishi aynan mana shu g'oyaviy rahbar, davlat va siyosiy arbobning fidokorona va jangovar xatti – harakatlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Ayniqsa uning “ahimsa” – kuch ishlatmaslik siyosati jahondagi ozodlik harakatlari uchun ibrat hisoblanadi.

Hindiston tarixi ko'hna va boy. Bu mo'jizakor mamlakatda son – sanoqsiz donishmandlar fidoyi vatanparvarlar, siyosiy arboblarning dunyoga kelgan. Ularning mangu ishlari nafaqat Hindiston, balki jahon miqyosida ham ibratlidir. Ana shunday asl hind o'g'lonlaridan biri mamlakatda ikki yuz yillik inglizlar zulmiga chek qo'ygan, a'moli va axloqi, mustahkam e'tiqodi va metin irodasi bilan jahonni lol qoldirgan. Mahatma Gandi Hindiston milliy ozodlik harakatining buyuk rahbari “gandizm” g'oyasining asoschi Mo'handas Karamchand Gandi 1869 – yil 2 – sentyabrda Gujarot shtatining ma'muriy markazi Po'rbandar shahrida dunyoga keldi. Gandilar avlodi hindu diniga qattiq ixlos qo'yib, barcha diniy rasm- rusumlarga og'ishmay amal qilardi. Mo'handas barcha dinlarni o'ziga yarasha to'g'ri deb bilar ularni qunt bilan o'rganib, qissadan hissa chiqarar, siyosiy va ijtimoiy hayotida ibrat bo'lib qolar edi.

Xususan, Gandi islom diniga ayrica baho berardi. “Muhammad (s.a.v) ning g'oyat dilbar inson ekanligi bilib, hayratdan yoqa ushladim” deydi Gandi. U “Birov yuzingga tarsaki ursa , sen unga ikkinchi yuzingni tut”, degan ta'limot asosida “ahimsa”(kuch ishlatmaslik), deb nom olgan o'ziga hos siyosiy usul- doktorinani ishlab chiqdi. Gandining zamondoshi va maslakdoshi, yirik siyosiy arbob, shoir Abul Kalom Ozod hindcha “ahimsa” so'zini urducha “amn” “amniyat” (tinch, sulh , murosas), deb tarjima qiladi va bu Gandiga maqul keladi.

Mahatma Gandining ajdodlari Gujarot shtatida xuquqshunos (qozi) bo'lib ishlab kelishgan. Gandi otasining vasiyati bilan amakilarining ko'magida Angliyada huquqshunoslik bo'yicha ta'lim oladi. 1891-1893 – yillarda Bombeyda (Mumbay) oqlovchi vazifasida

shuningdek, 1893 - 1914 yillarda Gandi Janubiy Afrikadagi Gujarot savdo firmasida huquqshunos bo'lib xizmat qiladi. Uning bu yerga kelib qolishiga bir muammo sabab bo'ladi. Gandi ikki oy shu ish ustida ishlaydi. Ikki - uch yildan buyon cho'zilayotgan chigal ishni yoshgina huquqshunos qisqa muddatda hal etib bergani Janubiy Afrikada, butun Hindistonda shov – shuv bo'ldi. Aynan mana shu ish va uning har ikki tomoni uchun foydali hal bo'lishi Gandining siyosiy faoliyati uchun bir umr “yo'lchi yulduz” bo'lib qoldi.

Mahatma Gandi yigirma yilcha Janubiy Afrikada qolib ketadi. Bu yerda tirikchilik sabab o'z vatanlarini tashlab kelgan yuz mingdan ortiq hind ishchilari istiqomat qilardi. Inglizlar zulmi ostida qolgan bu odamlar mustamlakachilikdan ham dahshatliroq istibdod – irqchilik balosiga duch kelgan mazlum bandalar edi. Ayniqsa, hind ishchilarining ayovsiz kamsitilishi uni chuqur iztirobga soldi. Shu bois, Gandi mustamlakachilarga qarshi kuch yoki qurol bilan emas, aksincha, hech qandey qurolli vositasiz kurashishga bel bog'laydi—ilk bor satyagrah („satya “ – haqiqat va „grah“—bo'ysunish) harakatini yo'lga qo'yadi. Satyagrah ikki maqsadni ko'zda tutardi. Biri—hamkorlik qilmaslik, ikkinchisi—yalpi bo'ysinmaslik. Hamkorlik qilmaslik harakatiga chet el mollari sotib olmaslik va uni mamlakatga kiritmaslik, ingliz idoralarida ishlashdan, hukumat mukofatlarini olishdan bosh tortish, saylovlarda ishtirok etmaslik kabilar kirgan. Bo'ysinmaslik harakati esa mustamlakachilar joriy etgan har qandey qonun- qoidalarni inkor etishdan o'z millati odatlarini qaror toptirishdan iborat edi.³¹

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A.Fayzullo „ Mening Hayotim” – T : Yangi asr avlodlari ” – B 327 – 328 2016 yil
2. Sh.Po'latov “Mahatma Gandiyning inson tabiati haqidagi qarashlari”2022
3. Raghavan Iyer, “Gandhi’s view of Human Nature” in Gandhi Marg, Journal of the Gandhi Peace Foundation, (New Delhi: Gandhi Peace Foundation), Vol. 6, No. 2, April 1962, p. 134
4. Mahadev Desai, The Diary of Mahadev Desai, (Ahmedabad: Navajivan Publishing House, 1932), p 35

³¹ Amir Fayzullo „ Mening Hayotim” – T : Yangi asr avlodlari ” – B 327 – 328 2016 yil